

ERTAKLAR YORDAMIDA BOLALAR NUTQINI SHAKLLANTIRISH

Abdalimova Sabina

SamDCHTI talabasi

Eshqobilova Ozoda

SamDCHTI talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada yosh bolalar, jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish va rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *MDH davlatlari pedagoglari, nutq o'stirish ishlari, «Aqli kitoblar tokchasi», aqliy qobiliyat, nuqtiiy faoliyat, so'zlashuv...*

KIRISH

Bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha yurtimiz va MDH davlatlari pedagoglari qator izlanishlar olib borishganki, xususan, R.Inog'omova, L.Mo'minova, V.Gerbova, M.Konin, G.Lyamina, O.Ushakovalarning pedagogik xazinasidan foydalanib MTTda nutq o'stirish ishlarini mazmunli tashkil etish mumkin.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarning nutq qobiliyatini shakllantirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda:

- har bir bolaning individual qobiliyatlarini aniqlash va mos ravishda rivojlantirish;
- hamkorlikka asoslangan ta'lim munosabatlarida bolani faollashtirish;
- nutqiy qobiliyati yashirin bolalar bilan olib boriladigan alohida o'yinli vaziyatlar yaratish.

Shunday qilib, an'anaviy ravishda badiiy asarlarni o'qib berishdan ko'ra innovatsion shaklda badiiy asar bilan tanishtirishning amaliy afzalliklarini tasniflaymiz.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun an'anaviy ta'limiy faoliyat tarbiyachining hikoya qilib berishi, o'qib berishi va takrorlatgan holda yod oldirishini tan oladi. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar tarbiyachining hikoyasini kichik o'zgarishlar bilan takrorlaydilar, hikoyalar kambag'al so'zlar vositasida talqin qilinadi xolos. Shuning uchun, hikoyani o'qib berish jarayni nihoyasiga yetgach, bolalardan qayta hikoya qilib berish emas, shu hikoya asosidagi aralash kartinkalarni magnitli doskaga o'z o'rniga ko'ra terib chiqishini talab etadigan "Rasmlarning o'rnini top" o'yini bolalarni faol nutqiy vaziyatga undaydi. Ular voqealar ketma-ketligiga ko'ra rasmlarni izlab topish jarayonida nafaqat nutqi balki, diqqati, kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. O'zlari hosil qilayotgan hikoya kompozitsiyasini kuzatish tarbiyalanuvchilarni faollashtiradi va yangi so'zlar bilan tasvirlashga urinadi. Ushbu faoliyat bolalarni zerikishdan himoya qiladi, butun

guruhni qayta hikoya qildirishga imkon bo'lmagan taqdirda, bu usul vositasida barcha bolalar ish jarayoniga jalb etiladi.

Ayniqsa tarbiyachi asosiy ijrochi rolidan kuzatuvchi darajasiga statusini o'zgartirishi bolalarga erkinlik beradi. Pedagogning ijrochi-bolalar xatti-harakatlarini rag'batlantirishi esa nutqiy faollikka yo'l ochadi.

Shu kabi innovatsion texnologiyalarni tanlashda quyidagi talablarga e'tibor qaratish kerak:

- texnologiyani o'qib berish emas, balki bolalarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga yo'naltirish;
- har bir bola uchun uning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har xil faoliyat turlarida faol nutq amaliyotini tashkil etish.

METODOLOGIYA

Nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalari - so'z boyligini boyitish va faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, izchil nutqqa o'rgatish maktabgacha yosh davrida hal qilinishini inobatga oladigan bo'lsak, ijodiy ta'lim texnologiyalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, nutq o'stirish faollik markazini badiiy qo'llanmalarga va didaktik materiallarga boy tarzda jihozlashga e'tibor berish kerak. Bolalar nutqining barcha qirralarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mavzuga mos syujetli rasmlar to'plamlari, sahnalashtirishga mo'ljallangan o'yinchoqlar to'plamlaridan, bosma didaktik o'yinlardan tashkil topgan metodik bankni yaratish tarbiyachi zimmasidadir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish nutqni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini e'tirof etgan holda, guruhlarda kitoblar burchaklari va "Aqlli kitoblar tokchasi" tashkil etilishi muhim. Chunki tarbiyalanuvchilar bunday materiallar bilan bevosita yangi taassurotlar, bilim, ko'nikmalar bilan tanishadi. Dialogik, hissiy jihatdan boy nutqi shakllanishi uchun qulay muhitda bo'ladi. Badiiy asarlar vositasida bolalarning nutqi va tafakkuri rivojlanar ekan, bir paytning o'zida bog'lanishli dialogga kirishadi, fikrlarini bayon etishga kirishadi. Bu bolaga zavq va quvonch bag'ishlaydi, bu tuyg'ular nutqni faol idrok etishni rag'batlantiradigan va mustaqil nutq faoliyatini yaratadigan eng kuchli vositadir. Buni amaliyotda kuzatganimizda o'yinlar va samarali ta'lim texnologiyalari asosida nutq o'stirish mashg'ulotlari o'tkazilganida bolalarning faolligi, fikrlarini dadil asosda bayon qilgani, jarayonda zerikish bilmaganligi, lug'atida yangi so'zlarni qo'llaganligi, qiziqishlari tufayli yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'onganligi ma'lum bo'ldi. Bu esa MTTda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda umumiy muhim kompetentsiyalarni shakllantirishning asosiy va zarur talabidir.

Mana shularni inobatga olgan olgan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o'stirish ta'limiy faoliyat jarayoni va nutq o'stirish faollik markazidagi jarayonlar zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda olib borilishi zarur. Chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti ishiga innovatsiyalarni

kiritish maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va isloh qilishning eng muhim shartidir.

Dono xalqimiz "Ertaklar-yaxshiliklar yetaklar", deb bejiz aytishmagan. Ertaklar bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarini jo qilishda, ularning ma'naviy olamini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqat-e'tibori, tafakkuri rivojlanadi. Ertaklarni tinglash til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boladagi ayrim nutqiy kamchiliklarni hikoya va ertaklar eshitish, she'r yodlatish, shuningdek so'zlarni to'g'ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali bartaraf etish mumkin.

Ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu xislatlarni tarbiyalash, insoniy fazilatlarini targ'ib etish, ular o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish kerak.

Jumladan, hayvonlar haqidagi "Tulkining taqsimoti" ertagida ayyorlik va tilyog'lamalik tulki obrazi orqali ifodalangan. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi ota nasihati bilan boshlanadi. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar namoyon bo'ladi.

Tarbiyachi tomonidan ertak o'qib bo'lingach, bolalarni umumiy xulosa chiqarishga undash lozim. "Agar sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding?", kabi savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga yordam beradi.

Har bir ertakning o'z g'oyasi bor. "Sehrli sholg'om" ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma-ket aytishga undab, "Kuch birlikda" degan g'oyani anglab yetishini ta'minlasa, "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumradning mehnatsevarligi ulug'lanadi. Qimmat esa dangasa, ishyoqmas sifatida gavdalanadi. Bolalar ertakni tinglash orqali qissadan hissa chiqarishga o'rgatiladi. Shuningdek, ertaklarni mahorat bilan bolalarga o'qib berish, kichkintoy bilan his-hayajonli muloqotni o'rnatishga, sezdirmay tarbiyaviy ta'sir qilishga, atrof-muhit haqidagi bilimi va ma'lumot zaxiralarini samarali to'ldirishga imkon yaratadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ertaklarni bolalarga yetkazishda yangi pedagogik texnologiya asosida bolalarning so'z boyligini oshirishga, ularning nutqini o'stirish, tafakkuri va ma'naviyatini rivojlantirishga qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ostonov J.Sh. Basic strategies for coping behavior in adolescents. EConference Globe 2021/7/26 275-277 c
2. Ostonov J.Sh. Coping behavior and its research style. Proceedings of 7th Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements// Hosted online from, New York, USA// June 25, 2021. 237-239 b

3. Ostonov J.Sh. Socio-Psychological Basics of The Study of The Styles of Attitude in Coping by. Adolescents Middle european scientific bulletin Volume 13 June 2021. Б. 442-446
4. Остонов Ж.Ш. Изучение копинг-стратегий и психологических защит у подростков в трудных учебных ситуациях. Вестник интегративной психологии // - Ярославль, 2021. Выпуск 22. С.144-146
5. Остонов Ж.Ш. Концепция копинга: определение, функция и виды. Вестник интегративной психологии // - Ярославль, 2020. Выпуск 22. С.279-281
6. Остонов Ж.Ш. Ўсмирларда психологик ҳимоя ва копинг хулқ-атвор омиллари намоён бўлишининг ўзига хос хусусиятлари. Psixologiya jurnali. 2021 й. 4-сон. 66-73 б
7. Остонов Ж.Ш. Факторная структура копинг-поведения подростков. Психология илмий журнали. 2020. № 4. Б.47-50
8. Остонов Ж.Ш. Копинг-ресурсы личности и адаптационный потенциал. Мактабгача таълимда компетенциявий ёндашувлар: истиқболлар, муаммолар ва ечимлар Республика масофавий илмий амалий анжумани. БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь Б.297-299
9. Остонов Ж.Ш. Ўсмирлардаги копинг хулқ-атвор ва унинг шахс мувафақиятидаги ўзаро алоқадорлигининг назарий асослари. Ижтимоий соҳани модернизациялаш контекстида педагогик таълим тараққиёти: муаммо ва истиқболлар // Республика илмий-амалий анжуман 2021 йил 28 май Б.134-135
10. Остонов Ж.Ш. Копинг-стратегии: развитие в онтогенезе. Педагогик маҳорат илмий журнали. Бухоро, 2020. №6 Б.102-104
11. Остонов Ж.Ш. Ўсмирлардаги энгга олиш хулқ-атворининг асосий стратегиялари. Ижтимоий соҳани модернизациялаш контекстида педагогик таълим тараққиёти: муаммо ва истиқболлар. Республика илмий-амалий анжуман 2021 йил 28 май Б.132-133
12. Остонов Ж.Ш. Ўсмирларда копинг хулқ-атвор омиллари шаклланишининг ижтимоий психологик механизмлари. Тафаккур ва талқин мавзусида // Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман тўплами 2021 йил, 27-май Б.817-820
13. Остонов Ж.Ш. Ўсмирлардаги копинг хулқ-атвор ва унинг шахс мувафақиятидаги ўзаро алоқадорлигининг назарий асослари. Тафаккур ва талқин мавзусида // Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман тўплами 2021 йил, 27-май Б.812-817

14. Мирзаева Д.Ш, Курбанова З.И. Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста. Scientific progress 2 (7), 12061212

15. Z. Kurbonova. The Importance of the use of Educational Technologies Aimed at the Development of the Child's Personality in Preschool Education. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)

16. Z.I. Qurbonova, M.N. Muqimova. Oilada yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning psixologik shart-sharoitlari. Science and Education 3 (4), 969-973

17. Z.I. Qurbonova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish-dolzarb vazifamiz. Ekonomika 1035-1038

18. J.Sh. Ostonov O'smirlarda koping xulq-atvor omillari namoyon etilishining o'ziga xos xususiyatlari

19. J.Sh Ostonov, M.M. Ibragimov. Bokschi sportchilarda psixologik muhofazaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and Education 3 (4), 15341539

20. J.Sh Ostonov, F. Adizova. O'smirlik davrida emotsional holatlarning o'ziga xos xususiyatlari Science and Education 3 (4), 1547-1553

21. J.Sh. Ostonov, A. Abdullayev. O'smirlarda psixologik himoya va koping xulq-atvor omillari namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education 3 (4), 1540-1546

22. J.Sh. Ostonov. O'smirlarda koping xulq-atvor omillari namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education 3 (3), 990-996

23. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 10031009 24. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447

25. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-164.

26. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Factors of Suicide Risk Intellectual Archive, 5(1), 49-53.

27. Jo'Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o'tkazishning o'ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.

28. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi

(o'quv qo'llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон

29. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Аvezов О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi.

Darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. - B. 494.

30. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. - B. 280.

31. Olimov L.Ya. Xulqi o'g'ishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, "Durdona". 2019. – 460.

32. Махмудова З.М., Олимов, Л. Я. (2021). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР ВА СТРАТЕГИЯЛАР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

33. Олимов, Л. Я. (2020). Olimov ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

34. Элов, З. С. (2014). Теоретические основы суицидального поведения. Psixologiya, 4, 16.

35. ZA Jo'Rayeva, ZM Maxmudova. Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o'tkazishning o'ziga xosligi. Science and Education 3 (4), 1916-1922

36. Maxmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. (2021). Social psychological characteristics of psychological defenses manifested in adolescents in extreme situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов, (22), 233237.